

Самарқанд Давлат университети Кенгашининг
2019 йил 5 сентябрда ўтказилган мажлиси 1-сонли баённомасидан
КҮЧИРМА

ЭШИТИЛДИ. Университетда “Халқаро инновация ва технологиялар трансфери маркази”ни ташкил этиш ва унинг низомини тасдиқлаш ҳақида.

Маъruzachi: илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор
Ҳ.А.Хушвақтов.

Ушбу масала кенгаш йигилишида атрофлича муҳокама этилиб

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор Ҳ.А.Хушвақтовнинг “Халқаро инновация ва технологиялар трансфери маркази”ни ташкил этиш ҳақидаги ахбороти маълумот учун қабул қилинсин.

2. Халқаро инновация ва технологиялар трансфери марказининг низоми тасдиқлансин.

Кенгаш раиси:

Р.И.Халмурадов

Кенгаш котиби:

М.Болтаев



**SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
BUYRUQ**

2019-yil 11 sentabr

713-ij

Samarqand davlat universitetida “Xalqaro innovatsiya va texnologiyalar transferi” markazini tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot sohalariga innovatsiyalar mexanizmlarini joriy etishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli qarori hamda 2019-yil 11-yanvar kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar va Xalq deputatlari viloyat kengashining navbatdan tashqari sessiya yig‘ilishi 3-sonli Bayonining 41-bandiga asosan ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, innovatsiyalarni transfer qilish, innovatsion faoliyatni rivojlantirish, universitet va ishlab chiqarishning samarali hamkorligini tashkillashtirish, xorijiy universitetlarning ta’lim uslubiyoti va ilg‘or pedagogik texnologiyalarini hamda ilmiy ishlanmalarni amaliyatga tadbiq etish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Samarqand davlat universitetida “Xalqaro innovatsiya va texnologiyalar transferi” markazi tashkil etilsin.
2. Samarqand davlat universiteti Kengashining 2019-yil 5-sentabrdagi majlisi qaroriga asosan “Xalqaro innovatsiya va texnologiyalar transferi” markazining Nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor (H.Xushvaqtov)ga:

- markaz faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan doimiy muvofiqlashtirib borish;
- markazga malakali mutaxassislarni jalb qilish maqsadida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish;
- markazning 2019-2020-yillarga mo‘ljallangan ish rejasini ishlab chiqish;
- markazni zarur me’yoriy-huquqiy hujjatlar bilan ta’minalash;
- markaz joylashadigan xonalarni jihozlash va tegishli ilmiy-uslubiy yordam ko‘rsatish;
- markaz xodimlarining shtat birliklarini shakllantirish uchun zarur mablag‘ manbalarini aniqlash vazifalari yuklatilsin.

5. Moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektori (I.Raxmanov)ga:

- markaz uchun Xalqaro ta’lim dasturlari fakulteti joylashgan binodan 2 ta xona ajratish va tegishli tartibda jihozlash;

- markazni zarur bo‘lgan kompyuter va boshqa zurur texnik vositalari bilan ta’minlash;

- markazning moliyaviy faoliyatini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tasdiqdan o’tkazish;

- markazning dastlabki faoliyati uchun budgetdan tashqari mablag‘lar hisobidan (innovatsion jamg‘arma mablag‘lari hisobidan) shtat birligi ajratish vazifalari yuklatilsin.

5. Ushbu buyruq ijrosining nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: ilmiy tadqiqot majmuasi boshlig‘i **A.Yarmuxamedov** tayyorlagan buyruq loyihasi, o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor **A.Soleyev**, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor **H.Xushvaqtov**, moliya-iqtisod ishlari bo‘yicha prorektor **I.Raxmanov**, katta yuriskonsult **I.Buriyev** roziligi, rektor **R.Xalmuradovning** munosabat belgisi.

Rektor

R.Xalmuradov



**Samarqand davlat universiteti
rektorining 2019-yil 11-sentabrdagi
713-ij-sonli buyrug‘iga ilova**

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
Samarqand davlat universiteti
“Xalqaro innovatsiya va texnologiyalar transferi markazi”ning
NIZOMI**

I. Umumiy qoidalar

1.1. Samarqand davlat universiteti qoshida “Xalqaro innovatsiya va texnologiyalar transferi markazi” (keyingi o‘rinlarda “Markaz”) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 7-maydagi “Iqtisodiyot sohalariga innovatsiyalar mexanizmlarini joriy etishni takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3698-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-yanvar kuni Samarqand viloyatiga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar ijrosini ta’minalash maqsadida intellektual mulkni boshqarish, texnologiyalar transferini (tijoratlashtirishni) ta’minalash hamda innovatsion sohada maslahat va ilmiy-texnik xizmatlar ko‘rsatish uchun tashkil etilgan.

Bu markaz tomonidan ilmiy ishlanmalarni tijoratlashtirish bilan bir qatorda universitetda ochiladigan “Xalqaro ta’lim dasturlari markazi”da olib boriladigan hamkor xorijiy universitetlarning ta’lim uslubiyoti va ilg‘or pedagogik texnologiyalarini respublika oliy ta’lim muassasalariga joriy qilish vazifasini ham amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

1.2. Markaz faoliyati O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, Innovatsion rivojlanish vazirligi va tegishli davlat boshqaruv organlari buyruqlari va me’yoriy hujjatlari bilan intellektual sohani muhofaza qilish hamda O‘zbekiston Respublikasining xalqaro bitimlari bilan, SamDU rektorining buyruq va farmoyishlari bilan ichki tartib qoidalariga amal qilgan holda, mazkur Nizom va boshqa me’yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

1.3. Markaz Samarqand davlat universiteti huzurida tashkil etiladi. Universitet kengashi Markaz faoliyatini muvofiqlashtiradi va unga ilmiy-uslubiy rahbarlik qiladi.

1.4. Markaz faoliyatini moliyalashtirish davlat va mahalliy budget hamda qonunchilikda ta’qilangan boshqa manbalardan amalga oshiriladi.

II. Markazning maqsadi va asosiy vazifalari

2.1. Markazning asosiy maqsadi innovatsion faoliyatni rivojlantirish, universitet va ishlab chiqarishning samarali hamkorligini tashkillashtirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish, SamDU bazasida innovatsion va texnologik kichik korxonalar va kompaniyalar tashkil etish hamda grantlar asosida mablag‘larni jalb qilish. Xorijiy universitetlarning ta’lim uslubiyoti va ilg‘or pedagogik texnologiyalarini respublika oliy ta’lim muassasalariga joriy qilish.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun Markazga quyidagi vazifalar yukланади:

- ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish strategiyasini ishlab chiqish, istiqbol texnologiyalarni baholash va marketing orqali intellektual mulkni boshqarish;
- tayyor ishlanmalar va texnologiyalar bo'yicha ma'lumotlar bazasini shakllantirish;
- ishlab chiqarish korxonalari bilan grantlar va kontraktlarni jalg qilishga ko'maklashish, intellektual mulkni boshqarish borasida maslahatlar berish;
- innovatsion faoliyatni rivojlantirish va texnologiyalarni transfer qilish bo'yicha tadqiqotlar olib borish;
- texnologiyalarni tijoratlashtirish masalalari bo'yicha seminar va konferensiyalar tashkil qilish;
- texnologiyalar transferi sohasini samarali faoliyati maqsadida qo'shimcha resurslarni jalg qilish;
- yosh mutaxassislarni ilmiy-texnik sohalarga jalg qilish uchun sharoitlar yaratish;
- texnologiyalarni transfer etish sohasida, innovatsion loyihalarni biznes rejalarini tayyorlash, ITI natijalarining huquqiy himoyasini ta'minlash, potensial investorlarni izlashda konsultativ xizmatlar ko'rsatish;
- patent-litsenzion, innovatsion tadbirkorlik va texnologiyalar transferi bo'yicha takliflar tayyorlash va kirish;
- intellektual mulk ob'ektlardan foydalanish, ularni yaratish, himoya qilish bilan bog'liq masalalar to'g'risida hujjatlarni ishlab chiqish;
- innovatsiya faoliyatini jadallashtirishga ko'maklashish, ishlab chiqarish salohiyatini rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy texnologiyalar transferini tashkil etish;
- mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini tez va samarali hal qilish uchun ilmiy xizmat ko'rsatishni tashkil etish va innovatsion loyihalarini shakllantirishda ko'maklashish.

III. Markaz faoliyatini tashkil etish

- 3.1. Markaz tuzilmasi boshliq, innovatsiyalar bo'yicha menedjer, ixtiolar va patent ishlari bo'yicha muhandis, ilmiy-texnik axborotlar muhandisi.
- 3.2. Markazga SamDU rektori tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan va vazifasidan ozod etiladigan boshliq rahbarlik qiladi.
- 3.3. Boshliq markaz oldiga qo'yilgan vazifalarini bajarishni tashkil etadi va ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun shaxsan javobgardir.
- 3.4. Markaz xodimlari tanlov asosida ishga qabul qilinadi.
- 3.5. Markaz faoliyati budget va budgetdan tashqari mablag'lar hamda qonunchilikda ta'qiqlanmagan boshqa manbalardan amalga oshiriladi.
- 3.6. Markaz faoliyatining asosiy masalalari SamDU Kengashida ko'rib chiqiladi.

IV. Markazning huquqlari

- 4.1. Markaz quyidagi huquqlarga ega:

- universitetni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarini aniqlash maqsadida davlat va xo‘jalik boshqaruv organlari, ishlab chiqarish korxonalaridan ma’lumotlar olish;

- universitet rahbariyatiga intellektual mulk ob’ektlarini yaratish, himoya qilish va tijoratlashtirish faoliyatlari samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflarni kiritish;

- O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik aktlari talablarining yoki intellektual mulk sohasida kelishilgan majburiyatlarning buzilishi kuzatilganda, ularni bartaraf etish uchun zarur bo‘lgan choralarни ko‘rish to‘g‘risida rahbariyatga ma’lumot berish;

- o‘z kompetentlik doirasida va rahbariyatning topshirig‘iga asosan SamDU nomidan tashqi tashkilotlar bilan ish olib borish.

V. Nizomga kiritiladigan o‘zgarishlar

5.1. Markaz o‘zining faoliyatini universitet ichki normativ-tashkiliy hujjatlari asosida tashkillashtiradi.

5.2. Markazni qayta tashkillashtirish va faoliyatini tugatish universitet rektori buyrug‘iga muvofiq amalga oshiriladi.

8.3. Rektor buyrug‘i asosida Nizomga o‘zgartirish va qo‘srimcha kiritilishi mumkin.

Ushbu Nizom Samarqand Davlat universiteti kengashining 2019-yil 5-sentabrdagi 1-son majlisida tasdiqlangan.

